



SOCIO-SPATIAL TYPOLOGY OF SMALL AND MEDIUM-SIZED CITIES IN UZBEKISTAN: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS BASED ON EMPIRICAL RESEARCH

Hulkar Ismailovna Kurbanaliyeva

Senior Lecturer, Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Email: hulkarqurbonaliyeva01@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: small and medium-sized cities, urbanization, socio-spatial typology, mahalla institution, collective solidarity, pragmatism, genealogical memory, mono-industrial cities, adaptive urbanization.

Received: 18.07.26

Accepted: 19.07.26

Published: 20.07.26

Abstract: This article provides a systematic analysis of the socio-spatial transformation in the social development process of small and medium-sized cities in Uzbekistan, based on empirical research. A five-tier criteria system has been developed for evaluating these cities. As a result of the empirical analysis, the studied areas are classified into three main typological models. The article analyzes the population's sense of belonging, the coefficient of collective solidarity, the functional transformation of the mahalla institution, and the desires to rationalize wedding ceremonies across gender and age dimensions. The findings of this research serve as a reliable methodological basis for improving the urban social environment and optimizing management decisions.

O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA SHAHARLARNING IJTIMOY-FAZOVIIY TIPOLOGIYASI: EMPIRIK TADQIQOTLAR ASOSIDA IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Hulkar Ismailovna Kurbanaliyeva

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi

Email: hulkarqurbonaliyeva01@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: kichik va oʻrta shaharlar, urbanizatsiya, ijtimoiy-fazoviy tipologiya, mahalla instituti, jamoaviy birdamlik, pragmatizm, genealogik xotira, monosanoat shaharlari, moslashuvchan urbanizatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻzbekiston kichik va oʻrta shaharlarning ijtimoiy rivojlanishi jarayonidagi ijtimoiy-fazoviy transformatsiyasi empirik tadqiqot asosida tizimli tahlil etilgan. Shaharlarni baholashda beshlik mezonlar tizimi ishlab chiqilgan. Empirik tahlillar natijasida oʻrganilayotgan hududlar uchta asosiy tipologik modelga ajratilgan. Maqolada aholining daxldorlik hissi, jamoaviy birdamlik koeffitsiyenti, mahalla institutining funksional transformatsiyasi, toʻy-marosimlarni ratsionallashtirish istaklari gender va yosh kesimlarida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari shahar ijtimoiy muhitini sogʻlomlashtirish va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish uchun ishonchli metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

СОЦИАЛЬНО-ПРОСТРАНСТВЕННАЯ ТИПОЛОГИЯ МАЛЫХ И СРЕДНИХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ЭМПИРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Хулкар Исмаиловна Курбаналиева

Старший преподаватель кафедры философии

Ташкентского государственного экономического университета

E-mail: hulkarqurbonaliyeva01@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: малые и средние города, урбанизация, социально-пространственная типология, институт махалли, коллективная солидарность, прагматизм, генеалогическая память, моногорода, гибкая урбанизация.

Аннотация: В данной статье на основе эмпирического исследования системно проанализирована социально-пространственная трансформация в процессе социального развития малых и средних городов Узбекистана. Разработана пятикритериальная система оценки городов. В результате эмпирического анализа изучаемые территории разделены на три основные типологические модели. В статье в гендерном и возрастном аспектах проанализированы чувство сопричастности населения, коэффициент коллективной солидарности, функциональная трансформация института махалли, а также стремление к рационализации свадебных торжеств и обрядов. Результаты данного исследования служат надежной

Kirish. Zamonaviy globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida shahar muhitini ijtimoiy-fazoviy jihatdan tasniflash shunchki geografik yoki statistik guruhlash emas, balki shahar ijtimoiy makonining strukturaviy elementlari o'rtasidagi yashirin qonuniyatlarni ochib berish jarayonidir[1]. Ijtimoiy fazoning dialektik tabiati shundaki, u nafaqat jismoniy obektlar majmuasi, balki ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimi tomonidan doimiy ravishda ishlab chiqariladigan va qayta shakllantiriladigan dinamik strukturadir[2]. Kichik va o'rta shaharlar hududiy taraqqiyotning, milliy madaniyat va o'zlikni saqlab qolishning hamda demografik muvozanatni ta'minlashning eng muhim bo'g'inlari hisoblanadi.

O'zbekistonda shaharsozlik madaniyatining tarixiy ildizlari qadimiy Buyuk Ipak yo'li bilan uzviy bog'liq bo'lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz kabi shaharlar asrlar davomida qit'alararo muloqot markazi bo'lgan. Biroq XX asrda amalga oshirilgan rejayviy sanoatlashtirish shaharsozlik tuzilmasini tubdan o'zgartirdi. Yangi shaharlar yirik xomashyo konlari hamda transport arteriyalari atrofida, asosan iqtisodiy ehtiyojlar uchun barpo etildi. O'zbekiston shaharsozlik tarmog'ining o'ziga xos xususiyati shundaki, mamlakatdagi jami shaharlarning qariyb 68,1 foizini aynan kichik shaharlar tashkil etadi va ularda shahar aholisining chorak qismiga yaqini istiqomat qiladi [3].

Bugungi kunda mamlakatimizning kichik va o'rta shaharlari o'zining boy tarixiy-madaniy merosi hamda bozor iqtisodiyotining shiddatli talablari o'rtasida oqilona muvozanat topishga intilib, chuqur ijtimoiy-tizimli transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Ushbu o'zgarishlar faqatgina tashqi me'moriy yoki infratuzilmaviy shakllarda emas, balki aholining dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy kayfiyati va muloqot modellarida ham aks etmoqda. Masalaning ijtimoiy-falsafiy jihatida shundaki, an'anaviy qadriyatlar va modernizatsiya jarayonlarining to'qnashuvi fonida shahar sotsiumida o'ziga xos moslashuv mexanizmlari shakllanmoqda. Mazkur jarayonlarni tizimli tadqiq etish, kichik va o'rta shaharlarning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilish hamda hududiy boshqaruv qarorlarini optimallashtirish uchun ishonchli metodologik asos yaratish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari va metodologiya. Tadqiqotda tizimli yondashuv, tarkibiy-funksional tahlil, qiyosiy tahlil va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Shaharlarni ijtimoiy-fazoviy ontologiyasiga ko'ra tasniflash va majmuaviy baholash maqsadida maxsus "Beshlik mezonlar tizimi" ishlab chiqildi. Ushbu tizim quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

1. Ijtimoiy-madaniy mezon. Aholining milliy o'zlikni anglash darajasi, tarixiy xotira, an'analar va genealogik xotira saqlanish darajasi.
2. Demografik-fazoviy mezon. Aholi soni, zichligi, shahar hududining ixchamligi yoki tarqoqligi, urbanistik muhitning demografik jarayonlarga ta'siri.
3. Ijtimoiy-funksional mezon. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, xususan "mahalla" institutining an'anaviy-madaniy roli va uning hozirgi kundagi institutsional-funksional holati.
4. Migratsion-adaptiv mezon. Aholining ijtimoiy harakatchanligi, megapolislar bilan bog'liqlik darajasi, yoshlarning hududda qolish motivatsiyasi yoki migratsion strategiyalari.
5. Raqamli-infratuzilmaviy mezon. Shahar infratuzilmasining qulayligi, piyodalar makoni, raqamli texnologiyalar va internetning aholi hayotiga kirib borish darajasi.

Empirik ma'lumotlarni to'plash maqsadida 2026-yil davomida Toshkent viloyatining Nurafshon, Yangiyo'l, Ohangaron, Angren, Olmaliq, Chirchiq hamda

Sirdaryo viloyatining Shirin, Yangiyer, Guliston shaharlarida keng qamrovli sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada tasodifiy va kvotali tanlash asosida jami 763 nafar respondent ishtirok etdi. Tanlanma hajmi respondentlarning jinsi, yoshi, ma'lumot darajasi va professional faoliyat turi bo'yicha tegishli hududlarning umumiy demografik tuzilmasiga mutanosib ravishda shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanib, empirik ma'lumotlar bazasi shakllantirildi va umumlashtirildi. Bu esa respondentlarning subyektiv mulohazalari orqali ichki ijtimoiy transformatsiyalarni chuqur o'lchash imkonini berdi.

Natijalar. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari aholining mahalliy urbanistik makonga moslashishi va ijtimoiy integratsiyasi borasida qator muhim qonuniyatlarni ochib berdi. "Globalashuv sharoitida kichik va o'rta shaharlar ijtimoiy-madaniy makonining transformatsiyasi: an'ana va modernizatsiya sintezi" nomli empirik tadqiqot natijalari aholining shahar muhitiga yuqori darajada bog'langanligini ko'rsatdi. Respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (80,9%) o'zini shahar ijtimoiy hayotining ajralmas qismi deb hisoblaydi (56,0% to'liq, 24,9% qisman). Begonalashuv ko'rsatkichi bor-yo'g'i 3,3% ni tashkil etgan.

Shaharlar kesimida eng yuqori daxldorlik ko'rsatkichlari kichik va ixtisoslashgan shaharlar – Shirin (64,3%) va Yangiyerda (61,8%) qayd etilgan. Eng past ko'rsatkich va yuqori neytrallik Yangiyo'l (37,7% o'ylab ko'rmagan), eng yuqori begonalashuv esa Olmaliqda (7,1%) kuzatilgan.

Jamoaviy tadbirlar (hashar va bayramlar) respondentlarning 68,7% ida hamjihatlik va birdamlik hissini uygʻotadi. Biroq, 18-25 yoshli yoshlar orasida hamjihatlik hissi eng past (53,9%) va loqaydlik darajasi eng yuqori (16,2%) ekanligi aniqlangan. Nurafshon shahrida respondentlarning 22,2%i tadbirlarni “rasmiyatchilik va majburiylik” deb baholagan.

Qoʻshnichilik munosabatlarida respondentlarning 76,1%i qiyin vaziyatda qoʻshnilar yordamiga tayanadi. 56 yoshdan kattalarda qoʻshnilarga boʻlgan mutlaq ishonch 63,5%dan yuqori boʻlsa, 36-45 yoshli respondentlar orasida individualizm va faqat oʻziga tayanish koʻrsatkichi eng yuqori 34,6% boʻlib chiqdi. Shaharlar boʻyicha individualizm va qoʻshnilarga ishonmaslik koʻrsatkichi eng yuqori - Yangiyoʻlda 47,2% va Ohangaronda 34,2%

Empirik maʼlumotlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili kichik va oʻrta shaharlar sotsiumida beshta fundamental tizimli muammo mavjudligini koʻrsatdi:

1. Ijtimoiy begonalashuv va pragmatizmning kuchayishi. Aholi oʻrtasidagi munosabatlarda samimiyat pasayib, manfaatlar toʻqnashuvi ortmoqda. Respondentlarning 20,5% i jamiyatda loqaydlik va shubha ustunligini taʼkidlagan, bu koʻrsatkich aynan Ohangaron (34,1%) va Yangiyoʻlda (32,1%) juda yuqori. Bu holat sotsiologik adabiyotlarda shahar hayot tarziga xos boʻlgan ikkilamchi aloqalarning birlamchi munosabatlar oʻrnini egallashi jarayoni bilan tushuntiriladi [4].

2. “Mahalla” institutining funksional inqirozi. Mahalla instituti anʼanaviy hamjamiyat markazidan koʻra, koʻproq maʼmuriy boshqaruv apparati sifatida idrok etilmoqda. Respondentlarning 43,5% i mahallani shunchaki “rasmiy boshqaruv organi” deb hisoblaydi, 25% i esa uning samaradorligini oʻtmish sarqiti yoki sezilmaydigan deb baholaydi. Ayniqsa, 46 yoshdan oshgan aholining 54-55% i unga rasmiy idora sifatida qaraydi.

3. Infratuzilmaviy nomutanosiblik. Shaharlarni rejalashtirishda piyodalar qulayligi va transport oqimi oʻrtasidagi muvozanat buzilgan. Aholining 39,1% i asosiy xizmatlar uchun transportga qaram, Nurafshonda esa aholining qariyb 10% i transformatsiya jarayonlari yakunlanmaganligi sababli infratuzilmani “mutlaqo noqulay va xavfli” deb hisoblaydi.

4. Ekologik omillarning ruhiy salomatlikka salbiy taʼsiri. Har beshinchi shahar aholisi (20,2%) ekologik noqulaylik (shovqin, chang, havo sifati) sababli ruhiy diskomfort holatida yashamoqda (12,7% asabiylashadi, 7,5% mutlaq salbiy taʼsir ostida). Shovqin va changga nisbatan ayollarning taʼsirchanligi (14,8%) erkaklarnikiga (10,6%) qaraganda yuqori.[5]

5. Jamoaviy tadbirlardagi majburiylik. Ijtimoiy integratsiya funksiyasini bajarishi kerak boʻlgan tadbirlarda 13,2% respondent “rasmiyatchilik va majburiylik” tuygʻusini his qiladi. Bu holat Nurafshonda (22,2%) maksimal darajada boʻlib, maʼmuriy bosim mexanizmlari saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijasida o'rganilgan shaharlar rivojlanish xususiyatlariga ko'ra uchta asosiy toifaga ajratildi:

Industrial-monosanoat modeli (Angren, Olmaliq, Chirchiq, Shirin). Shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti yagona yirik sanoat korxonasi atrofida konsentratsiyalangan. Aholining turmush tarzi va professional qadriyatlari ishlab chiqarish sikliga bog'liq bo'lib, "korporativ vatanparvarlik" tuyg'usi kuchli. Ammo iqtisodiyot diversifikatsiyalanmaganligi sababli (masalan, Shirinda kichik biznes atigi 1,6%) aholining, ayniqsa yoshlarning migratsiya tendensiyasi kuzatiladi.

Ma'muriy-kommunikativ va sotsiomadaniy model (Guliston, Yangiyo'l). Sanoat gigantlari o'rnini savdo, xizmat ko'rsatish va ma'muriy funksiyalar egallagani bois, mahalla ijtimoiy bog'liqlikning asosiy bo'g'iniga aylanadi. Masalan, Gulistonda axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi aholining postindustrial qadriyatlarga o'tayotganidan dalolat beradi.

Dinamik-moslashuv modeli (Nurafshon, Ohangaron). Yirik aglomeratsiya ta'sirida tezkor o'zgarayotgan va migratsion jozibadorligi yuqori bo'lgan shaharlardir. Aholi yirik shaharning hayot ritmiga moslashib, o'z o'zligini ham qishloq an'analari, ham zamonaviy shahar madaniyati sintezi (glokalizatsiya) asosida qayta shakllantiradi.

Aholining migratsion strategiyasida "ikkiga bo'linish" holati mavjud: 39,1% aholi moddiy sharoit yaxshilansa yirik shaharga ko'chib ketishga tayyor bo'lsa, 38,1% i o'z shahridagi tinchlik va xotirjamlikni afzal ko'radi. Aholining 78,1% i to'y va marosimlarda dabdabadan voz kechishni qo'llab-quvvatlashi sotsiumning ratsional iste'mol madaniyatiga o'tayotganini tasdiqlaydi. Globallashuv ta'siri kiyinish va muloqotda 40,6% respondent tomonidan me'yor darajasida baholangan, bu esa yopiq jamiyat modelidan to'liq voz kechilganligini anglatadi.

Xulosa. O'zbekistonning kichik va o'rta shaharlarida ijtimoiy rivojlanish jarayoni organik urbanizatsiya modeliga yaqinlashmoqda. Rivojlanishga to'siq bo'layotgan beshta fundamental muammo (ijtimoiy begonalashuv, mahalla inqirozi, infratuzilmaviy va ekologik nomutanosiblik, majburiylik) boshqaruv uslubini "majburiyat"dan "hamkorlik"ka o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

Shaharlarni loyihalashtirishda yagona andozani majburan tatbiq etishdan voz kechib, har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy kapitali va mahalliy o'zligiga asoslangan differensial modellarni (industrial, ma'muriy, dinamik) ishlab chiqish zarur. O'zbekiston shaharsozlik modellarini loyihalashda milliy o'zlikdan uzilishni emas, balki an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy urbanistik shakllar bilan simbiozini nazarda tutuvchi "moslashuvchan urbanizatsiya" modeli asos bo'lishi lozim. Kichik va o'rta shaharlar milliy mentalitet va global modernizatsiya to'qnashuv nuqtasi bo'lib, ularning muvozanatli rivoji ijtimoiy barqarorlikning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lefebvre, H. (1991). The Production of Space. Oxford: Blackwell. Pg-45-58.
2. Parsons, T. The Social System. Routledge & Kegan Paul Ltd, 1951. – P. 112-125.
3. Бегимова, Д. К. Урбанизация в Узбекистане: проблемы и приоритеты–
Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 6 (15) Т.3 2019. – № 10. – С.
190-192.
4. Wirth, L. Urbanism as a Way of Life // American Journal of Sociology. – 1938. –
Vol. 44, No. 1. – P. 1-24.
5. Komilova, N. K., Ermatova, N. N., Rakhimova, T., Karshibaeva, L. K., &
Hamroyev, M. O. Urboekological Situation and Regional Analysis of Population Health In
Uzbekistan // International Journal of Agricultural Extension. – 2021. – Vol. 9, No. 1. – P. 65-69.